

BOLA MANFAATLARI USTUVORLIGI TAMOYILINING XALQARO HUQUQDAGI MAZMUNI VA AMALIY AHAMIYATI

Abdullayeva Madina Xushniddin qizi

TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning 1-kurs talabasi

Tel: +998903494300

Annotatsiya: Ushbu maqola bola huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro-huquqiy standartlarning mazmuni va ularning O‘zbekiston milliy huquq tizimiga implementatsiya qilinishini tahlil qiladi. Tadqiqotda bola manfaatlarini ustuvorligi tamoyilining normativ asoslari, xalqaro hujjatlar va milliy qonunchilikdagi aks etishi o‘rganildi. Shuningdek, ushbu tamoyilni qo‘llashdagi muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: bola huquqlari, ustuvor manfaatlar, xalqaro huquq, implementatsiya, BMT, UNISEF, inson huquqlari.

Kirish. Insoniyat tarixining barcha bosqichlarida bolalar jamiyatning eng zaif va e‘tiborga muhtoj qatlami bo‘lib kelgan. Shuning uchun ham bola huquqlari umuminsoniy huquqlarning ajralmas qismi bo‘lishiga qaramay, alohida himoya mexanizmlariga ega. Bola huquqlari - bu nafaqat bolaning jismoniy yashashini ta‘minlash, balki uning shaxs sifatida shakllanishi, ta‘lim olishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun zarur bo‘lgan huquqiy va ijtimoiy imkoniyatlar yig‘indisidir.

Butun dunyoda globallashtirish jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda inson huquqlarini ta‘minlash masalasi xalqaro huquqning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, bolalar huquqlarini alohida himoya qilish zarurati xalqaro hamjamiyat tomonidan keng e‘tirof etilgan.

Bola manfaatlari ustuvorligi tamoyili bolalar huquqlarini ta'minlashning fundamental prinsipi sifatida shakllanib, u bolaga oid har qanday qaror va faoliyatda asosiy mezon sifatida qo'llaniladi. Ushbu tamoyilning xalqaro darajada mustahkamlanishida Birlashgan Millatlar Tashkiloti muhim o'rin tutadi.

Mamlakatda bola huquqlarini ta'minlash va ularni har tomonlama himoya qilish uchun maxsus huquqiy baza shakllangan desak, adashmagan bo'lamiz.

Bola huquqlari deganda - irqi, jinsi, tili, dini, tug'ilgan joyi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiyligi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har bir bola ega bo'lishi kerak bo'lgan huquq va erkinliklar. Xalqaro huquq normalarida 18 yoshga etmaganlarning barchasi bola deb tan olingan.

Mazkur tadqiqot ishi quyidagi ilmiy metodlar asosida olib borildi:

1. Normativ-huquqiy tahlil – xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilikni o'rganish;
2. Taqqoslash metodi – xalqaro va milliy huquq normalarini solishtirish;
3. Tizimli yondashuv – bola manfaatlari ustuvorligi tamoyilining elementlarini kompleks tahlil qilish;
4. Analitik metod – mavjud muammolarni aniqlash va ularni baholash.

Jumladan, bolalarning huquqlari mamlakatimiz Konstitutsiyasida va boshqa qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki davridanoq, aniqrog'i 1992-yili BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasini¹ ratifikatsiya qilishi bilan jamiyatimiz bola huquqlari naqadar, dolzarb masala ekanligini xalqaro miqyosda e'tirof etdi. Mamlakatimizda bola huquqlarini ta'minlashda, qonunchilik hujjatlari va Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya bilan bir qatorda, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risi Bola manfaatlari ustuvorligi tamoyilining nazariy-huquqiy asoslari to'g'risidagi xalqaro pakt, Xotin- qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya, Irqiy kamsitishlarga barham

¹ BMT Bosh Assambleyasining 1989 yil 20 noyabrdagi "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi.
<https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child>

berish to'g'risidagi konvensiya va Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya, kabi inson huquqlari bo'yicha boshqa xalqaro shartnomalarga ham tayaniladi. Bugungi kungacha mamlakatimiz 80 dan ortiq inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarga qo'shilgan. Mazkur xalqaro huquqiy hujjatlar orasida bola huquqlariga oid xalqaro normalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola manfaatlarini ustuvorligi tamoyili (best interests of the child) - xalqaro huquqning fundamental prinsipi bo'lib, u bolaga taalluqli barcha qarorlar va harakatlarda uning manfaatlarini ustuvor ahamiyat kasb etishini nazarda tutadi.

Mazkur tamoyilning nazariy asoslari quyidagi elementlardan iborat:

1. bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanish ehtiyojlari
2. ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvi
3. xavfsizlik va himoya darajasi
4. bolaning fikrini inobatga olish

Shu bilan birga, ushbu tamoyil dinamik xarakterga ega bo'lib, u har bir konkret holatda alohida baholanishi lozim.

Bola manfaatlarining ustuvorligi tamoyili xalqaro huquqning fundamental asosi bo'lib, uning mazmuni quyidagi asosiy jihatlarda namoyon bo'ladi: Ushbu tamoyil 1989-yildagi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 3-moddasida² mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra, davlat idoralari, sudlar yoki ijtimoiy himoya muassasalari bolaga oid har qanday masalani ko'rayotganda, birinchi navbatda bolaning oliy manfaatlarini hisobga olishlari shartdir deb, belgilab qo'yilgan. Ushbu tamoyil keng qamrovlilik bo'lib, tamoyil nafaqat oilaviy nizolarda (masalan, bola kim bilan yashashi), balki ta'lim, sog'liqni saqlash, migratsiya va hatto davlat budjetini taqsimlash jarayonlarida ham qo'llaniladi.

Bunda bolaning fikrini tinglash, manfaatlarini aniqlashda bolaning yoshi va yetukligidan kelib chiqib, uning shaxsiy fikri inobatga olinishi xalqaro standartlarning

² BMT Bosh Assambleyasining 1989 yil 20 noyabrdagi "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi.
<https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child>

ajralmas qismidir. Bu tamoyil bolani huquqning passiv obyektini emas, balki o'z manfaatlarini himoya qilinishi shart bo'lgan faol subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

5. Bola manfaatlarini ustuvorligi tamoyili xalqaro huquqda fundamental prinsip sifatida shakllangan;

6. Ushbu tamoyil Convention on the Rights of the Childning 3-moddasida aniq mustahkamlangan;

Tamoyil quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi:

7. bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi;

8. xavfsizlik va himoya;

9. ijtimoiy integratsiya;

10. bolaning fikrini inobatga olish;

11. O'zbekiston Respublikasining 2023-yilgi Konstitutsiyasida ham ushbu prinsip mustahkamlangan;

12. Amaliyotda tamoyil keng sohalarda qo'llaniladi: sud amaliyoti, ta'lim, sog'liqni saqlash, migratsiya va ijtimoiy siyosat.

Xalqaro hujjatlarga murojat qilsak, 1989-yil 20-noyabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya ushbu sohadagi eng mukammal va universal hujjatdir. O'zbekiston ushbu hujjatga 1992-yilda qo'shilgan bo'lib, u 54 ta moddadan iborat va to'rtta asosiy tamoyilga tayanadi:

Diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik (2-modda): Hech bir bola o'zining yoki otanasining irqi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi sababli kamsitilishi mumkin emas.

Bolaning oliy manfaatlarini ustunligi (3-modda): Davlat organlari, sudlar yoki ma'muriy idoralar har qanday qarorni qabul qilishda birinchi navbatda bolaning manfaatlarini hisobga olishlari shart.

Yashash, omon qolish va sog'lom rivojlanish (6-modda): Davlat bolaning nafaqat yashashini, balki uning jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash majburiyatini oladi. Shuningdek, boshqa xalqaro konvensiyalarda bolaning fikrini hurmat qilish (12-

modda):.Konvensiyaga qo‘shimcha ravishda qabul qilingan uchta fakultativ protokol bola huquqlarini himoya qilish doirasini yanada kengaytirdi. Qo‘shimcha tarzda, quydagi xalqaro hujjatlarni ham qo‘shishimiz mumkin, ya‘niy,

“Bolalarni qurolli to‘qnashuvlarga jalb qilmaslik haqidagi protokoli”, “Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va pornografiyasiga qarshi kurashish protokoli”. Muloqot tartib-taomillari to‘g‘risidagi (shikoyat qilish huquqi) protokoli. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada bola huquqlari kafolatlari o‘z ifodasini topganligi ham ushbu sohaning nechoglik muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Xususan, 45-moddada davlat bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish majburiyatini oldi.

Bu yerda muhim yangilik shundaki, Konstitutsiya darajasida "Bolaning oliy manfaatlari" tushunchasi kiritildi. Bu sud tizimi va davlat boshqaruvida har qanday nizoni hal qilishda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqaro huquqiy manbalarda tamoyilning normativ ifodasi bola manfaatlari ustuvorligi tamoyili xalqaro huquqiy hujjatlarda, ayniqsa, Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaning 3-moddasida mustahkamlangan.

Ushbu moddani tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagilarni nazarda tutadi: bolaga oid barcha harakatlarda, davlat organlari, sudlar, ma‘muriy va qonunchilik organlari tomonidan bolaning eng yaxshi manfaatlari ustuvor hisoblanadi.

Amaliyotda tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bola manfaatlari ustuvorligi tamoyilini qo‘llash bir qator muammolar bilan ham bog‘liq:

- 13.** tamoyilning aniq mezonlari yetarlicha ishlab chiqilmagan
- 14.** davlatlar o‘rtasida qo‘llash amaliyoti turlicha
- 15.** siyosiy va iqtisodiy omillarning ustuvorligi
- 16.** bolalarning fikrini yetarli darajada hisobga olinmasligi

Mazkur muammolar tamoyilning samarali qo‘llanilishiga to‘sqinlik qiladi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

17. Bola manfaatlarini aniqlashning universal mezonlarini ishlab chiqish,
18. Sud va ma'muriy organlar uchun metodik qo'llanmalar yaratish Bolalarning fikrini tinglash mexanizmlarini institutsionallashtirish,
19. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish,
20. Milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish

Yuqoridagilarga **xulosa** qilib shuni aytish mumkinki, bola manfaatlari ustuvorligi tamoyili xalqaro huquq tizimida markaziy o'rin egallaydi va bolalar huquqlarini ta'minlashning asosiy mezoni hisoblanadi. Ushbu tamoyilning samarali amalga oshirilishi davlatlarning huquqiy siyosati, institutsional salohiyati hamda xalqaro hamkorlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Natijada, ushbu tamoyilni chuqur o'rganish va amaliyotga samarali joriy etish bolalar huquqlarini himoya qilishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. United Nations. Convention on the Rights of the Child. New York, 1989.
2. United Nations General Assembly. Universal Declaration of Human Rights. 1948.
3. United Nations. International Covenant on Civil and Political Rights. 1966.
4. United Nations. International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights. 1966.
5. United Nations. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW). 1979.
6. United Nations. Convention against Torture and Other Cruel, Inhuman or Degrading Treatment or Punishment. 1984.
7. UNICEF. The State of the World's Children Reports. New York.
8. UN Committee on the Rights of the Child. General Comment No. 14 (2013) on the right of the child to have his or her best interests taken as a primary consideration.
9. Office of the United Nations High Commissioner for Human Rights. Human Rights Handbook for Parliamentarians. Geneva.

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023.
11. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun. 2008.
12. UNICEF. Implementation Handbook for the Convention on the Rights of the Child. 2007.
13. Philip Alston. The Best Interests Principle: Towards a Reconciliation of Culture and Human Rights. International Journal of Law, Policy and the Family.
14. Michael Freeman. Article 3: The Best Interests of the Child. In: Commentary on the UN Convention on the Rights of the Child.
15. World Health Organization. Child Health and Human Rights Reports. Geneva.
16. Bekzod o‘g‘li, J. F. (2024). O‘zbekistonda inson huquqlari va milliy qonunchilikni takomillashtirish. *Международный журнал теории новейших научных исследований*, 2(10), 173-176.
17. Jumayev, F. B. (2023). Legal Services for Collection of Expenses: Problems and Proposals. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(6), 9-13.